

O'ZBEKISTONDA CHET TILLARI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH
BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Baxromova Irodaxon Bobirxon qizi
A.Avloniy nomidagi MTI magistranti
E-mail: fantasy_2016@inbox.ru
Phone: +998931979416

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda amalga oshirilgan chet til siyosati haqida qisqacha ma'lumot berilgan bo'lib, islohotlar va ularning bayoni yoritilgan. Islohotlarda belgilangan cora tadbirlarning amaliyotga qay darajada tadbir' etilgani hamda ijrosi bo'yicha ham tahlillar kiritilgan.

Annotation: This article provides a brief overview of the foreign language policy implemented in Uzbekistan, and highlights the reforms and their explanation. Analyzes are also included on the extent to which the measures specified in the reforms have been put into practice and their implementation.

Kirish

Globalashuv- bu mamlakatlar orasida texnika va savdo orqali o'zaro aloqalar o'rnatishi va shuning natijasida iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yaqinlashuv nazarda tutiladi. Globalashish jarayonining ilk namunasi sifatida tijoriy va madaniyat almashish uchun Xitoy, O'rta Osiyo va O'rta Yer dengizi mamlakatlarini jipslashtirgan Buyuk Ipak Yo'li ko'rsatiladi. Globalashuv jarayonining ikkinchi bosqichi 2000-yillardan buyon ingliz tili xalqaro aloqa tili sifatida dunyo sahnasiga chiqdi va dunyo davlatlari ta'lim tizimida Chet tili ta'lim sifatini oshirishni muhim darajaga ko'tardi. Eng ko'p ishlatiladigan xalqaro til sifatidagi maqomi va uning turli tillarda so'zlashadigan davlatlarning aloqa vositasi sifatida foydalanishga talab ingliz tilini mamlakat miqyosida ommalashishiga eng muhim sabablardan biridir. Bundan tashqari, ingliz tili ekstralinguistik va liguistik xususiyati bilan ham ham o'rganishga ham foydalanishga qulay til hisoblanadi¹. Statistik ko'rsatgichlarga ko'ra dunyo aholisining qariyb 20% ingliz tilida so'zlashadi, dunyo mamakatlarining 60% ida esa ingliz tili eng ko'p o'qitiladi 40% davlatlarda rasmiy tillardan biri hisoblanadi². Shuning uchun bo'lsa kerak, 2023yil holatiga ko'ra internet sahifalarida eng ko'p foydalanilgan birinchi til sifatida ingliz tili 59%, ikkinchida esa rus tili 5,3% tashkil etyapti³.

Oxirgi chorak asr mobaynida jahonning bir qator davlarlarida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishga bo'lgan talab yanada oshdi, til o'qitishni boshlang'ich sinflardan

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_tillar

² <https://www.newsdle.com/blog/most-studied-foreign-languages>

³ <https://www.statista.com/statistics/262946/most-common-languages-on-the-internet/>

o'qitish uchun jahon standartlari asosida milliy dastur ishlab chiqildi. 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror doirasida yosh avlodga xorijiy tillarni o'rgatish tizimini sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishda muhim dastur joriy etildi.

Asosiy qism

O'zbekistonda o'zbek tili o'qitish, muloqot va rasmiy til hisoblanadi. Keyingi o'rinda rus tili o'zining millatararo muloqot tili sifatida mamlakatimizda keng tarqalgan. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda O'zbekistonda chet tili o'qitishning tarixiy rivojlanish jarayonini 3 bosqichga bo'linadi:

- I. 1924-1960-yillar
- II. 1961-1990-yillar
- III. 1991-hozirgacha bo'lgan davrlar

Ushbu davrlar mobaynida o'zbekistonda g'arb va sharq tillari o'qitish borasida ko'plab tajribalar amalga oshirildi, metodikalar ishlab chiqildi va darslik va dasturlar ustida ham yaxshilash va rivojlantirish ishlari bosqichma bosqich amalga oshirildi. Xususan, chet tillari o'qitish 1924-yildan SSSRda ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida O'zbekistondagi rus ta'lim muassasalarida boshlandi. Aynan chet tili metodistlari 1960-yillarda yetishib chiqib boshladi va bu o'z navbatida chet tili o'qitish uchun mamlakat miqyosida milliy darslik yaratishga erishildi. Darsliklar asosan grammatika o'qitish metodikasini o'z ichiga olgan xalos. XX asrning 70-yillariga kelib esa birinchi marta maktablar uchun milliy dastur ishlab chiqildi. Mustaqillik yillarigacha bir qator metodislar va tilshunoslar o'z ilmiy ishlari va tajribalari bilan chet tili rivojiga xissa qo'shdilar⁴.

Mustaqillikdan so'ng boshqa xorijiy tillarni o'qitishga keng islohotlar olib borila boshlandi. Ilmiy ishimizda aynan mustaqillikdan so'ng amalga oshirilgan va oshirilayotgan III-bosqich til islohotlari mazmuni, amaldagi holati va natijalarini tahlil qilishga qaratiladi. 1992-yildan boshlab ta'lim tizimida bo'lgan islohotlar bilan bir qatorda chet tillari o'qitish bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi, jumladan, "Milliy mutaxassislarni tayyorlashga", jahon andozalariga javob bera oladigan ta'lim dasturlari ishlab chiqishni amalga oshirdi. Eng muhim o'zgarish sifatida grammatika va tarjimaga asoslangan metoddan muloqotga asoslangan metodga o'tish bo'ldi. Iqtisodiy va siyosiy hamda ilm fanda yuqori natijalarga erishish va xalqaro maydonga chiqish mamlakatimizda chet tillari, xususan, ingliz tili ta'limini kuchaytirishni taqazo etdi. Shunday qilib, O'zbekistonda ingliz tilini ommaviy o'qitishga o'tish 2000-yillardan boshlangan desak adashmaymiz. Bunda asosiy urg'u nemis va fransuz tillari chet tili sifatida o'qitiladigan sinflarda ingliz tilini o'qitishga qaratilgan. Bunda ingliz tili asosiy chet tili sifatida viloyat va tuman markazlaridagi maktablarda beshinchi sinfdan

⁴ https://www.researchgate.net/publication/337414762_Historical_outline_of_FLT_in_Uzbekistan

boshlab o'qitilgan. O'qitish metodikasi hanuz sovet davridan amalda bo'lib kelgan grammatik tarjima metodlari asoratlari ko'zga tashlanib, 25 ta o'quvchidan ortiq sinflar ikki guruhga bo'lgan holda o'qitilgan. "O'zbekistonda ingliz tili o'qishda muloqotga asoslangan metodan dars jarayonlarida shlatilishdan ko'ra ko'proq konfrensiyalarda muhokama qilish uchun mavzu sifatidagina qo'llanilishi"⁵ haqidagi fikrlar yangi samarali metodlar va dasturlar amalda qo'llashda oqsayotganini ko'rsatdi. Ingliz tilining jahonda nufuzi oshishi asnosida o'qitish tizimini takomillashtirish hamda ta'limning tashkiliy-metodologik masalalariga nisbatan oxirgi o'n yillikda e'tibor qaratish boshlandi. Bu boradagi ilk islohotlar 2012-yilgi "Chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" Prezident Qarori⁶ bilan boshlandi. Unga binoan O'zbekistonda ilk bora ingliz tiliga oid bilimlarni baholashning milliy tizimiga asos solindi, ingliz tilini o'qitish hamda ommaviylashtirishda ommaviy axborot vositalari, jumladan televideniya dan foydalanish yo'lga qo'yildi hamda ingliz tiliga oid metodik majmua va darsliklarni xorijiy hamda mahalliy ekspertlar yordamida qayta tahrirlash, chekka hududlarda dars berayotgan ingliz tili o'qituvchilari maoshiga ustama qo'shib berish tartibi yo'lga qo'yildi. Mamlakatda ingliz tilini o'qitishda markaziy tadqiqot-metodik markaz vazifasini o'tashi ko'zlangan muassasaga bo'lgan ehtiyoj ko'zga tashlana boshladi: chet tilini ommaviy o'qitish tizimini yo'lga qo'yish sohaga ixtisoslashgan o'qituvchilarni muntazam tayyorlash hamda o'qituvchilarga zaruriy metodik dastak bo'lishga qodir muassasa bo'lishini zaruriyatga aylantirgan edi. 2013-yil 23-maydagi "O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi" PQ-1971-sonli Prezident qarori O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetini "chet tillari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining respublika bazaviy ta'lim va ilmiy-metodik muassasasi"⁷ etib belgiladi. Yuqoridagilarni ingliz tilini ommalashtirishga oid ilk islohotlar desak bo'ladi, islohotlar ingliz tilini o'qitish tizimini yo'lga qo'yishda ilk tajriba maktabi sifatida xizmat qilgan holda yoshlarda ingliz tiliga rag'batning oshishi, ingliz tili uchun metodik hamda tashkiliy bazaning yaratilishi yo'lida muhim xizmat qildi. Ingliz tilini o'qitish tizimini takomillashtirishga oid islohotlar "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"⁸ gi 2021-yil 19-maydagi Prezident Qarori bilan yangi bosqichga qadam qo'ydi. Unga ko'ra xorijiy til o'qituvchilari sonini oshirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarini oliy ta'lim muassasalariga birlashtirish, C1 darajasiga ega o'qituvchilar maoshiga 50 foiz miqdorda ustama joriy qilish, chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirishga xorijlik ekspertlarni jalb etish joriy etildi.⁸ Ushbu qarorga asoslanib qabul qilingan Vazirlar

⁵ Hasanova, D. (2007). Functional Allocations of English in Post-Soviet Uzbekistan; Pedagogical Implications for English Language Teachers. USA.

⁶ <https://lex.uz/docs/-2126032>

⁷ <https://lex.uz/docs/-2176173?ONDATE=09.11.2021&ONDATE2=10.09.2021&action=compare>

⁸ <https://lex.uz/docs/-5426736>

Mahkamasining “Xorijiy tillarni o’rganishni samarali tashkil etish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarorida ingliz tilini o’qitishda internet tarmog’i orqali onlayn darslarni yo’lga qo’yish, xorijiy tillarni o’qitishga ixtisoslashgan maktablarga birlashtirilgan barcha oliy ta’lim muassasalarini tayanch oliy ta’lim muassasasi deya hisoblash, o’quvchilarga faqat til aspektlarinigina emas, endi til ko’niklamalari (tinglash, o’qib tushunish, yozish, so’zlashuv) ni ham samarali o’rgatish, davlat xususiy sherikchiligidagi ta’lim markazlarini yaratish, xorijiy tillarni o’qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti yo’lga qo’yildi⁹.

Ushbu islohotlar ingliz tilini o’qitish tizimi mamlakatda ingliz tilini o’qitishda grammatik tarjima metodikasini zamonaviy interfaol metodikalarga almashtirish jarayoniga oid tadqiqotlar olib borildi. 2018-yilda ingliz tili o’qituvchilari darslarni “interfaol metodlar”, jumladan, “chigil yozdi” mashqlari, sahna ko’rinishlari hamda tezkor javob kabi uslublardan foydalangan holda o’qitishga harakat qilardilar. Biroq, o’quvchilarning bilim darajasidagi tafovut ushbu uslublarni amalda qo’llashni murakkablashtirar edi. Adabiyotlarda ham chet tili bilim darajasidagi tafovut interfaol metodlardan foydalanishni murakkablashtirishi ko’p bora uchraydi¹⁰. Ushbu islohotlar ingliz tilini o’qitish tizimiga oid quyidagi 4 ta yo’nalish asosida olib borilganini ko’rishimiz mumkin:

I. **Moddiy-texnik:** lingafon xonalari, axborot texnologiyalarini jalb etish, ingliz tilini o’qitishda televideniya hamda internet orqali masofaviy ta’limdan foydalanish

II. **Metodik:** interfaol metodlarga asoslangan yangi metodik majmualarva ta’lim standartlarini ishlab chiqish, til aspektlaridan ko’ra til ko’nikmalariga ko’proq e’tibor berish.

III. **Tashkiliy:** Xorijiy til o’qituvchilarini tayyorlash uchun tayanch oliy ta’lim muassasalari, oldin Davlat test markazi, keyinroq esa xorijiy tillarni baholash agentligi tomonidan xorijiy tillarni baholash tizimining ishga tushirilishi, xorijiy tilga ixtisoslashgan maktablarga asos solinishi

IV. **Moliyaviy:** Davlat byudjetidan chekka hududlarda dars beruvchi yoki C1 sertifikatiga ega o’qituvchilarga ustama to’lanishi va hokazo.

Albatta, ushbu sa’y harakatlar o’z mevasini bermay qolmadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ingliz tilini o’qitish tizimi ancha takomilashgan hamda mustahkam tajribaga ega. Biroq, o’quvchilarning bilim darajasidagi tafovut ushbu uslublarni amalda qo’llashni murakkablashtirar edi. Adabiyotlarda ham chet tili bilim darajasidagi tafovut interfaol metodlardan foydalanishni murakkablashtirishi ko’p bora uchraydi¹¹. Shuning uchun aytish joizki, ingliz tilini o’qitishni tashkillashtirish

⁹ <https://lex.uz/docs/-5431845>

¹⁰ https://www.researchgate.net/publication/277971290_Teaching_Mixed-Level_Classes_with_a_Vygotskian_Perspective

¹¹ https://www.researchgate.net/publication/277971290_Teaching_Mixed-Level_Classes_with_a_Vygotskian_Perspective

mexanizmlari ustida tadqiqotlar olib borish pedagogik tadqiqotlarning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Qarorida ham tillarni o'qitish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati va amaliy islohotlar to'laqonli yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorining 1-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) hamda Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etilganligi hamda 2-bandiga muvofiq Agentlik va uning vakillari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazining 34 ta shtat birligi, Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimining 39 ta shtat birligi hisobidan tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi. Agentlik davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishi, xorijiy va mahalliy hamkorlar bilan aloqalar o'rnatib, ularning moliyaviy, tashkiliy va uslubiy ko'magini mamlakatda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga jalb qilishni tashkil etish, vazirlik va idoralar bilan birgalikda davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatini xorijiy tillarda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi uslubiyotlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish, talab yuqori bo'lgan kamida o'nta xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash, xorijiy tillar o'qituvchilari uchun malaka talablari va baholash mezonlarini ishlab chiqadi hamda ularga malaka toifasini berish jarayonini ochiqlik tamoyili asosida tashkil etish, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarning ro'yxatini hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarning darajalari o'rtasidagi muvofiqlikni tasdiqlash kabi chora-tadbirlar tayinlandi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yurtimizda xorijiy tillarni o'qitila

boshlanganiga 100-yil bo'libdi (1924-2024). Ingliz tiliga mamlakatimizda asosiy e'tibor qaratila boshlanganiga esa taxminan chorak asr deb hisoblasak, bu davr oralig'ida aholimizning xorijiy til savodxonligi sezilarli ko'rsatgichlarga ega bo'ldi. Xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish bo'yicha yetakchi mamlakat hisoblangan Finlandiyada ham bu darajaga chiqish uchun yarim asrlik islohotlar va o'zgarish natijasi deyish mumkin (1970-2023). Shuningdek, Ingliz tilini o'qitish tizimining rivojlanishi mamlakatimizda ko'p yillik islohotlar jarayonining mahsuli hisoblanadi. Metodik nuqtayi nazardan ushbu jarayon an'anaviy grammatik-tarjima metodikasidan interfaol metodikalarga o'tish bilan xarakterlanadigan bo'lsa, tashkiliy-metodik jihatdan xalqaro til sertifikatlariga ega pedagoglarni o'qitish faoliyatiga jalb qilish, xorijiy ekspertlar ishtirokida ingliz tili o'quv predmetlarini ishlab chiqish amaliyotini yo'lga qo'yish, ingliz tilini o'qitish tadqiqotlari uchun metodik "hab" sifatida xizmat qiluvchi muassasalarni tashkil etishdan iborat bo'ldi. Shu bilan birga qayd etish joizki, garchi ingliz tilini o'qitish nodavlat xususiy, xalqaro hamda prezident maktablarida o'z samarasini namoyon etayotgan bo'lsa-da, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar orasida ingliz tili ko'nikmalarining yalpi rivojlantirish masalasi – hanuz o'z yechimini kutayotgan masala bo'lib qolmoqda. Buni ijobiy hal qilish uchun ingliz tilini o'qitishning yangicha mexanizmlarini umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatida tatbiq etish borasidagi tadqiqotlarga ehtiyoj katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.researchgate.net/publication/337414762_Historical_outline_of_FLT_in_Uzbekistan
2. Hasanova, D. (2007). Functional Allocations of English in Post-Soviet Uzbekistan; Pedagogical Implications for English Language Teachers. USA.
3. <https://lex.uz/docs/-2126032>
4. <https://lex.uz/docs/-2176173?ONDATE=09.11.2021&ONDATE2=10>.
5. <https://lex.uz/docs/-5426736>
6. <https://lex.uz/docs/-5431845>
7. https://www.researchgate.net/publication/277971290_Teaching_MixedLevel_Classes_with_a_Vygotskian_Perspective
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_tillar
9. <https://www.newsdle.com/blog/most-studied-foreign-languages>
10. <https://www.statista.com/statistics/262946/most-common-languages-on-the-internet/>